



TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING O'RNI VA AHAMIYATI

Yusupova Orzugul

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

ORCID: 0009-0005-2753-9676

dreamflower8894@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada resurs va resurs samaradorligi bo'yicha ta'riflar keltirilgan. Shu bilan birga to'qimachilik sanoat korxonalarida resurslardan samarali foydalanishning ayrim jihatlariga va resurslar samaradorligining asosiy tamoyillariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: resurs samaradorligi, tamoyil, innovatsion texnologiya.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕСУРСОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Юсупова Орзул

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Аннотация. В данной статье даются определения ресурсов и эффективности использования ресурсов. При этом уделяется внимание некоторым аспектам эффективного использования ресурсов на текстильных предприятиях и основным принципам ресурсоэффективности.

Ключевые слова: эффективность использования ресурсов, принцип, инновационная технология.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF EFFECTIVE USE OF RESOURCES IN TEXTILE INDUSTRY ENTERPRISES

Yusupova Orzugul

Tashkent Textile and Light Industry Institute

Abstract. This article provides definitions of resources and resource efficiency. At the same time, attention is paid to some aspects of the efficient use of resources in textile enterprises and the basic principles of resource efficiency.

Keywords: resource efficiency, principle, innovative technology.

Kirish.

Respublikada bugungi kunda sanoat korxonalarining muntazam va barqaror rivojlanishida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida "Sanoatning "drayver" sohalari rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish maqsadida sanoatda qo'shilgan qiymat ha jmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan (Farmon, 2023).

Mamlakatimizning to'qimachilik sanoat korxonalarida bugungi kunda amalga oshirilayotgan iclohatlar sanoatning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatida tub burilishlar yasamoqda, korxonalar faoliyatida recurslardan samarali foydalanish bo'yicha innovatsion jarayonlar, texnologiya va usullardan foydalanishi o'zining natijasini ko'rsatmoqda.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yilning yanvar-mart oylarida xorijga 629,3 mln AQSH dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksport qilingan. Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlar jumladan, tayyor to'qimachilik mahsulotlari – 286,6 mln AQSH dollari, ip kalava – 217,8 mln AQSH dollari, trikotaj mato – 71,8 mln AQSH dollari, gazlamalar – 37,4 mln AQSH dollari, paypoq mahsulotlari – 10,3 mln AQSH dollari, gilam mahsulotlari – 5,4 mln AQSH dollarini tashkil etadi (Statistika qo'mitasi, n.d.).

Bizga ma'lumki, recurslardan samarali foydalanish sanoat korxonalarida asosiy vazifa hisoblanadi va shu orqali yuqori natijalarga erishiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda "resurs" va "resurs samaradorligi" tushunchalarining mazmun va mohiyatini yoritishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

«Resurslar» tushunchasining o'zi fransuzcha "ressource" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, yordamchi vositani anglatadi. Amerikalik iqtisodchi olimlar Makkonell va Bryu (2011) fikriga ko'ra "iqtisodiyotda resurs - bu jamiyat ehtiyojlarini qondiradigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan xizmat yoki boshqa aktivlardir".

Klassik iqtisod resurslarning uch toifasini tan oladi, ular ishlab chiqarish omillari deb ham ataladi: yer, ishchi kuchi va kapital. Yer barcha tabiiy resurslarni o'z ichiga oladi va ishlab chiqarish joyi ham xom ashyo manbai sifatida qaraladi. Mehnat yoki inson resurslari ish haqi to'lanadigan mahsulotni yaratishda berilgan inson mehnatidan iborat. Kapital inson tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar yoki ishlab chiqarish vositalaridan (mashinalar, binolar va boshqa infratuzilma), foizlar bo'yicha to'lanadigan boshqa tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda foydalaniladi (Samuelson va Nordhaus, 2004)

Yuqoridagi fikrlarni umumiyalashtirib fikrimizcha, resurs samaradorligi - bu ishlab chiqaruvchilarning minimal harakatlar bilan maksimal natijalarga erishishga intilish jarayonida aks etadi. Resurslar tejamkorligini oshirish natijasida resurslar samaradorligiga erishish mumkin. Demak, resurs tejamkorligi bu ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ya'ni xarajatlarning barqarorligi bilan natijalarning o'sishini ta'minlash, resurslardan samarali, oqilona, kompleks foydalanish va iqtisodiy zararlarning oldini olish jarayonidir.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodchi olimlari Kinash (2015) va Beconovlar (2017) fikriga ko'ra, resurs deganda iqtisodiy boyliklarni takror ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan omillar majmuasini tushunishni taklif qiladilar, iqtisodiy resurslar deganda esa ular tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan tabiiy, inson va moddiy resurslarning to'liq majmuasini tushunadilar. Yepixina (2016) ham resurslar deganda mavjud texnologiyalar va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan barcha moddiy boyliklarni olish manbalari va vositalarini nazarda tutgan. Sudakovaning mualliflik konsepsiyasida resurslar doim potensial ishlab chiqarish omillari bo'lib hisoblanishi, ya'ni bu ishlab chiqarishga jalb etilgan tabiiy obektlar ekanligi ko'rsatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Resurslardan samarali foydalanishni o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish,

umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Sanoat korxona faoliyatining pirovard natijalari ko'p jihatdan ichki va tashqi shart-sharoitlarga bog'liq bo'lsa ham, ishlab chiqarishning resurs omillari va ularni birlashtirish, ular yordamida mehnatni tashkil etish xar doim hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun korxona faoliyatini faqat shart-sharoitlarga va resurslardan oqilona foydalanishga bog'lab qo'yish to'g'ri yechim bo'lmaydi. Bizga ma'lumki har qanday ishlab chiqarish korxonalarining resurslardan samarali foydalanishning yuqori nuqtasi xom ashyo va elektr energiya hisoblanadi. So'z o'rnida ishlab chiqarish siklining barcha bosqichlarida ishlab chiqarish omillaridan oqilona va samarali foydalanish quyidagi asosiy chora-tadbirlarga asoslanadi:

1. Texnik va texnologik omillar:

- jismoniy yoki ma'naviy jihatdan eskirgan uskunalarni innovatsion texnologiyalarga asoslangan jihozlarga almashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonida resurs va energiya tejaydigan texnologiyalardan foydalanish;
- texnologik sikl jarayonlarni optimallashtirish va avtomatlashtirish;
- ishlab chiqarish zanjirida texnologik operatsiya muddatini qisqartiradigan va chiqindilarni kamaytirishga yordam beradigan eng ilg'or texnologiyalarni qo'llash;
- mahsulot imidjini oshirish yoki dunyo bozori talabi doirasida dizaynini takomillashtirish.

2. Tashkiliy jihatdan:

- resurslardan oqilona foydalanishni tashkil etish;
- resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini oshiruvchi maqbul usullarini qo'llash;
- logistika, saqlash xarajatlarlarini chuqur tahlil qilish va resurslarning yo'qotilishini minimallashtirish;
- mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish, uning unumdorligini oshirish.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan:

- resurslardan samarali foydalanganlik uchun rag'batlantirishni yo'lga qo'yish;
- tarmoq modellari va boshqa zamonaviy usullardan foydalanish orqali resurslarni iste'mol qilishni hisobga olish va nazorat qilishni takomillashtirish;
- ma'lum darajadagi natijalarga erishish maqsadida zamonaviy kompyuter texnologiyalardan foydalangan holda resurslar bozoridagi mavjud vaziyatni chuqur tahlil qilish kuzatib borish.

1-jadval

Resurslar samaradorligining asosiy tamoyillari

Tamoyil	Natija
Ishlab chiqarish zanjirida resurslarni to'g'ri taqsimlash	Resurslarni to'g'ri taqsimlanishi ulardan samarali foydalanish va sarf xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi
Innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish	Yangi texnologiyalarda chiqindi chiqish hajmi kamayadi ishlab chiqarish jarayonida samaradorlik oshadi
Raqobat muhiti va bozor konyunkturasi	Raqobat muhiti sanoat korxonalarini innovatsion mahsulot ishlab chiqarishga undaydi
Ijtimoiy, iqtisodiy va moliyaviy omillar	Uchala omil bir birini to'ldiruvchi bo'lib natijada moliyaviy barqarorlikni ro'yobga chiqaradi
Ekologik omil	Dunyo ekologik vaziyati iqtisodiy samaradorlik ekologik barqarorlik bilan ham sinxron bo'lishi kerakligini ko'rsatib turibdi

Manba: tadqiqotlarga asoslangan muallif ishlanmasi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan chora tadbirlar to'qimachilik sanoat korxonalarida ishlab chiqarish bosqichlarida resurslardan samarali va ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanishda muhim dastak bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga global iqtisodiyot sharoitida to'qimachilik sanoati korxonalarida resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash ham bugungi kunning dolzarb masalasidir.

To'qimachilik sanoat korxonalarida resurslardan samarali foydalanish muayyan tamoyillarga asoslanishi lozim. Bu esa ishlab chiqarish korxonalari faoliyatida maqsad va vazifalarni bajarish jarayoni muayyan obektiv xususiyatlar bilan bog'liq muhim qoidalarni ifodalaydi.

To'qimachilik sanoat korxonalarida resurslardan samarali foydalanishning ayrim jihatlariga to'xtalib o'tsak, **Birinchidan**, ishlab chiqarish faoliyatini yuqori saviyada tashkil etish va rejalashtirish orqali resurslarni samarali boshqarish, ishlab chiqarish zanjirini optimallashtirish va ta'minot zanjiriga alohida e'tibor qaratish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, resurslar ta'minoti liniyalarini uzoq muddatda kuzatib borish va narx navoni tahlil qilish, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xom ashyolarni fyuchers shartnomalar asosida sotib olish ham xarajatlarni optimallashtiradi.


Uchinchidan, to'qimachilik sanoatida chiqindilarni chuqur va qayta ishlash jumladan, ishlab chiqarishning bo'yoq zanjirida ishlatiladigan suv resurslarini qayta ishlash va ishlab chiqarishda foydalanish iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi.

To'rtinchidan, to'qimachilik sanoat korxonalarida har bir ishlab chiqarish zanjirida mahsulot sifatini ta'minlash orqali yuqori sifat natijadorligiga erishiladi.

Beshinchidan, yangi texnika va texnologiyalarga investitsiya kiritish barobarida kam chiqindi chiqishiga asos bo'ladi, natijada ishlab chiqarishning innovasion va texnologik rivojlanishiga erishiladi.

Oltinchidan, korxona ishchilarining mehnat shart sharoitlarini yaxshilash hisobiga ular ijtimoiy mas'uliyati oshadi va ular tayyorlayotgan mahsulotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sanoat tarmoqlarida resurslardan samarali foydalanish, ya'ni resurslarni optimal va maqsadli ravishda ishlatish, har qanday faoliyatda muhim omil hisoblanadi. Bu quyidagi dolzarb masalalarni o'z ichiga qamrab oladi:



1-rasm. Sanoat tarmoqlarida resurslardan samarali foydalanish

Manba: muallif tomonidan shakllantirildi.

Natija o'rnida shuni aytishimiz kerakki, to'qimachilik sanoat korxonalarida resurslardan samarali foydalanish nafaqat iqtisodiy manfaatlarga olib keladi, balki ekologik barqarorlik va ijtimoiy rivojlanish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatning bosh maqsadlaridan biri ham sanoatda tarkibiy qayta tuzishni amalga oshirish orqali O'zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini ta'minlashdan iborat. Shuning uchun sanoat tarmog'ini tarkibiy jihatdan o'rganish va tahlil qilish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalariga eng samarali tarmoqlar sifatida alohida e'tibor qaratadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa, bugungi kunda global iqtisodiyot sharoitida resurslarga va ulardan foydalanishga bo'lgan talab kuchayayotganligi, ular qiymatini o'sishi, ulardan foydalanish darajasi oxir-oqibat korxona hayotiy siklini davom ettiruvchi har qanday resurslardan oqilona foydalanishni taqozo etmoqda. Har qanday mahsulotni ishlab chiqarish va qancha hajmda ishlab chiqarishgina emas, balki shu bilan birga bu mahsulotni ishlab chiqarishga qancha resurs va mablag' talab qilinishi ham ko'pincha korxonalar uchun asosiy va dolzarb masalalarga aylanmoqda. Bu har bir korxonani bir tomondan, iste'molchi talabini qondirish bo'lsa, ikkinchi tomondan resurslar xarajatlarining kamaytirishning innovasion yechimlarini izlab topishga undaydi. Shu bilan birga, har bir korxona uchun xarakterli bo'lgan meyorlashtirish va resurslarning qiymati ham shuni taqozo etadi.

Adabiyotlar /Jumepamypa /Reference:

Farmon (2023) "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.

McConnell, C.R., S.L. Brue, and S.M. Flynn. (2011) *Economics: Principles, Problems, and policies*, 19th ed. McGraw-Hill/Irwin, New York, NY. ISBN 0-07-351144-7.

Samuelson, P.A. and Nordhaus W.D. (2004). *Jump up to: a b Economics*, 18th ed. McGraw-Hill/Irwin, Boston, MA. ISBN 0-07-287205-5.

Бессонов, А.С. (2017) *Технологии ресурсосбережения в строительстве и их применение на современном этапе / научные исследования и инновации*. № 2. - С. 18-24.

Епихина, Л.В. (2016) *Новые подходы к формированию ресурсосберегающей модели предприятия горнорудной промышленности / Российское предпринимательство*. - № 6. - С. 56-59.

Кинаш, И.А. (2015) *Организация системы управления ресурсосбережением на предприятии / Austrian Journal of Humanities and Social Sciences*. - №11. - С. 112-119.